



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

YANGI O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA'LIMNING OLIY TA'LIMDA RIVOJLANIB BORISHI

Rashidova Muxlisa Qurbon qizi

*O'zbekiston Milliy universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish metodikasi (ma'naviyat asoslari) mutahassisligi
1-kurs magistri*

Annotatsiya. Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslarga Yangi O'zbekistonda Oliy ta'lim musasalarida inklyuziv ta'limning rivojlanib borishi va olib borilayotgan islohotlar va yoritib berilgan. Qolaversa xorijiy davlar tajribasi ham kiritib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Inklyuziv ta'lim, ijtimoiy himoya, konsepsiya, xorijiy tajriba, erkin dunyoqarash. Innovatsion texnologiyalar.

Annotation. This article covers the development and ongoing reforms of inclusive education in the musasas of Higher Education in New Uzbekistan for persons with disabilities. The experience of foreign drums is also included.

Keywords. Inclusive education, social protection, concept, foreign experience, free worldview. Innovative technologies.

Аннотация. В этой статье рассказывается о развитии и проводимых реформах инклюзивного образования в высших учебных заведениях нового Узбекистана для лиц с ограниченными возможностями. Кроме того, был учтен опыт зарубежных стран.

Ключевые слова. Инклюзивное образование, социальная защита, концепция, зарубежный опыт, свободное мировоззрение. Инновационные технологии.

So'nggi yillarda mamlakatimizda ijtimoiy himoya sohasida ayniqsa nogironligi bor shaxslarni Oliy ta'limga qamrab olish, shu orqali ularni har tomonlama inklyuzivlashtirish jamiyatdagi tengqurlari qatorida o'z o'rinlarini topishi moddiy va ma'naviy tomondan hech kimga qaram bo'lmasdan, ajralmagan holatda hayot kechirishlari uchun yetarlicha shart-sharoitlar yaratilmoqda, huquqiy-me'yoriy hujjatlar qabul qilinmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi. Mazkur konsepsiyaning asosiy maqsadi Oliy ta'lim sohasida xorijiy mamlakatlar tajribasidan unumli foydalangan holda raqobatbardosh, har tomonlama zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, o'z shaxsiy fikriga ega bo'lgan keng dunyoqarashli yuqori malakali kadrlar tayyorlab, Yangi O'zbekistonda islohotlarni jadallik bilan amalga oshirishdan iboratdir.

Mazkur konsepsiyasida inklyuziv ta'limni chuquroq o'rganish va uning asoslarini yaratish va yanada rivojlantirishga alohida ahamiyat berib o'tilgan. Jumladan:



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

- imkoniyati cheklangan o'quvchilarga ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari turlarini ko'paytirish va sifatini oshirish;
- ta'limda inklyuziv jarayonlarni keng rivojlantirish, adaptiv texnologiyalarni joriy etish;
- talabalar turar joylari va oliy o'quv yurtlari binolarida imkoniyati cheklangan talabalar uchun qo'shimcha shart-sharoitlar yaratish;
- ta'lim muassasalarini ushbu toifadagi o'quvchilarni zarur adabiyot va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamdagi o'quvchilarini moddiy rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish.¹

2017-yil 1-dekabrda qabul qilingan "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"²gi Farmonga ko'ra nogironligi bo'lgan shaxslarga Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilishda imtiyozlar berilib, 2018-2019 o'quv yilidan boshlab har yili I va II guruh nogironligi bor shaxslarga Oliy ta'limda bilim olishlari uchun qo'shimcha 2 foizli kvota ajratildi.

Oliy ta'lim muassasalarida ham oxirgi besh yilda sezilarli o'zgarishlar bo'ldi desam mubolag'a bo'lmaydi albatta. Imkoniyati cheklangan shaxslar o'z tenqur tengdoshlari qatori barcha imkoniyatlardan unumli foydalangan holda bilim olib, oliy ma'lumotga ega bo'lmoqdalar, ijtimoiy hayotga mostlashib o'zlarini shu jamiyatga kerakli inson sifatida ko'rmoqdalar. To'g'ri oliy ta'limda inkuzivlashtrishda bir qator muomolar ham mavjud. Misol tariqasida aytadigan bo'lsam;

- ❖ Pedagog o'qituvchilarning imkoniyati cheklangan shaxslar bilan ishlashda tajribaning yetishmasligi;
- ❖ Kerakli audio va video darsliklarning kamligi;
- ❖ Nutqida va eshitishda muomosi bo'lgan shaxslar uchun surdotarjimonlarning deyarli yo'qligi;
- ❖ Jismoniy nogironligi bo'lgan shaxslar uchun harakatlanishda zina va chiqish joylarida pando'stlarning kamligi;

Oliy ta'limda va umumiy qilib olganda ta'lim sohasida inklyuziv ta'limni rivojlantirishda xorijiy tajribalardan unumli foydalanlangan va ularning sinalgan usullaridan foydalanish ancha samara beradi, chunki inklyuziv ta'lim ularda ancha

¹ 2030 yilgacha oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.

² "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.12.2017 yildagi PF-5270-son.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

rivojlanib odimlab ketgan. Masalan, Buyuk Britaniya universitetlarida nogironligi bor talabalar o'zi kirmoqchi bo'lgan oliy ta'lim muasasasining ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini ko'zdan kechirib, ularga yaratilgan shart-sharoitlarni, moddiy texnik bazasini o'rganib, keyin xujjat topshiradilar. Seminar va ma'ruzalarda online va offline tarzda qatnashib, professor o'qituvchilar bilan doimiy aloqada bo'lib turadilar. Bizda ham ushbu tizim yo'lga qo'yilmoqda.

Yaqin yillarda oliy ta'limda inklyuziv ta'lim yanada rivojlanib, nogironligi bor yoshlar ham tengdoshlari qatori yetuk kadr bo'lib yetishishlari aniq albatta. Buning uchun quyidagi takliflarimni berib o'tmoqchiman;

- IT sohasida bilim olayotgan talabalarga vazifa sidfatida nogironligi bor talabalar uchun ularga qulay bo'lgan o'quv darsliklarni yaratib berilishi.
- Ko'zi ojiz talabalar uchun Brayl alifbosidagi darsliklarni yanada ko'paytirish;
- Oliy ta'lim muasasasida volontorlik faoliyatini yanda rivojlantirish va kengaytirish;
- Nogironligi bor talabalar uchun grant loyihalarini yanada ko'paytirish;
- Xorijiy mamlakatda tahsil olayotgan nogironligi bor tengdoshlari bilan o'zaro fikr almashish imkoniyatini yanada kengaytirish;
- Nogironligi bor talabalar uchun "Shanba ekskursiyasi"ni tashkil qilish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2030-yilgacha oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
2. "Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.12.2017 yildagi PF-5270-son